



O'ZBEKISTONING BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISHI JARAYONI XUSUSIYATLARI VA NATIJALARI

Faxriddinova Nozima Nuritdin qizi

O'zbekiston Milliy universiteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi, 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayoni xususiyati, mustaqillikka erishgandan so'ng rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tish jarayonini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda iqtisodiyotni rivojlanishi uchun chora tadbirlar, strategik yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Xususiylashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan.*

Shuningdek valyuta kurslari, bank-moliya, kredit tizimlari nazoratini yaxshilash, O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishining afzalliklari ochib berildi.

Kalit so'zlar: *davlat xarajatlari, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, revolyutsion hamda evolyutsion yo'llar.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу особенностей процесса перехода Узбекистана к рыночной экономике, постепенному переходу от плановой экономики к принципам рыночной после обретения независимости. Рассматриваются меры и стратегические направления развития экономики. Приватизация направлена на обеспечение макроэкономической стабильности, а также на улучшение контроля над обменным курсом, банковской и финансово-кредитной системами. Раскрываются преимущества перехода Узбекистана к рыночной экономике.*

Ключевые слова: *государственные расходы, экономический рост, макроэкономика, рыночная экономика, революционные и эволюционные пути.*



Abstract: *This article is devoted to the analysis of the nature of the process of transition of Uzbekistan to a market economy, the gradual transition from a planned economy to the principles of a market economy after gaining independence. It considers measures and strategic directions for the development of the economy. Privatization is aimed at ensuring macroeconomic stability. It also improves control over exchange rates, banking, finance, and credit systems, the advantages of Uzbekistan's transition to a market economy are revealed.*

Keywords: *government spending, economic growth, macroeconomics, market economy Revolutionary and evolutionary paths.*

Jahon iqtisodiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, davlatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish davri ma'muriy buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o'zgartirish hamda bozor tizimini shakillantiruvchi tizimdir. Mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlar yo'lining, muhim belgisi markazlashtirilgan mamuriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon bozor tizimiga o'tishdan iboratdir. Bu transformatsiya jarayoni nafaqat siyosiy mustaqillikni mustahkamlashning, balki mamlakat fuqarolariga global iqtisodiyotga integratsiyalashgan holda yuqori turmush darajasini yaratishning asosiy sharti edi. Biroq, O'zbekistonning o'tish modeli boshqa postsovet davlatlaridan farqli ravishda, "shok terapiyasi" usulini qo'llamasdan, ijtimoiy himoyani saqlab qolgan holda, bosqichma-bosqichlik va ehtiyotkorlik tamoyiliga asoslanadi.

Ushbu maqola O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining tarixiy bosqichlari, xususiyatlari va natijalarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda mamlakat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etgan liberalizatsiya, xususiylashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy islohotlar ko'rib chiqiladi.

O'zbekistonning o'tish modeli boshqa postsovet davlatlaridan farqli ravishda, "shok terapiyasi" usulini qo'llamasdan ijtimoiy himoyani saqlab qolgan holda, bosqichma-boshqichlik bilan o'ta boshladi. Ma'lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishning evolyutsion, revolyutsion yo'llari mavjud. Polsha, Rossiya bozor



iqtisodiyotiga o'tishning revolyusion yo'lini tanlagan bo'lsa, O'zbekiston evolyusion usuli bilan o'tish juda muhim afzal deb bildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich bo'lishi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan aytib o'tilgan:

Birinchi bosqichda quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib quyilganligi ta'kidlanadi:

- totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

- Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakillantirish.

Bu vazifani bajarish birinchi bosqichda isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari aniqlab olindi va amalga oshirildi:

- o'tish jarayonining haqiqiy asoslarini shakillantirish islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;

- mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash. Bu vazifalarni bajarilishi keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I. A. Karimov asarida bu bosqich uchun quyidagi bir qator vazifalar ajratib ko'rsatildi:¹

- davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;

¹ Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. Toshkent: O'zbekiston 1992 y.



- ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;

- milliy valyuta - so'mni yana ham mustahkamlash;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish;

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'li davom ettirildi.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi bosqichda "erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir". Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:²

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakillantirish;

Iqtisodiy aloqalar va iqtisodiy munosabatlarni yangi turga o'tish uchun iqtisodiy islohatlar strategiyasini ishlab chiqishni talab etadi. O'zbekistondan bozor munosabatlariga o'tkazishga ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi. Davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizimlarni yuzaga keltiradi. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadida to'liq erishildi va bu sohada qo'yilgan vazifalar to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi, chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakillantirish har bir davrda kun tartibiga yangi vazifalarni qo'yadi.

O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tish strategiyasi ijobiy natijalar berib, mamlakat iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishga yordam berdi. Dalillar sifatida

² Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent: O'zbekiston 1992 y.



aytishimiz mumkinki, investitsiyaviy muhit yaxshilandi, tashqi va ichki investitsiyalar hajmi oshdi. Xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratildi, tadbirkorlik, kredit masalalaridagi muammolar bartaraf etildi. Davlat mulkini xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakillantirish O'zbekistonda ikki bosqichda amalga oshirildi

1-bosqich 1992-1993 yillarda amalga oshirildi. Bu davrda korxonalar transport va qurilishning kichik korxonalari qayta ishlash korxonalari mulk shakli o'zgartirilib mulkning ijara, jamoa aksiyadorlik shakllari vujudga keldi. Uy-joy xususiylashtirildi.

2-bosqich O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 1994-yil 21-yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilib, korxona aksiyalarini chiqardilar, auksion savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, xususiylashtirishni yoppasiga olib borish ko'zda tutiladi.

Bozor iqtisodiyotiga otishning o'zbek modeli:

- **Birinchisi.** O'zining milliy - davlat manfaatlari ustun bo'lgan holda o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish.

- **Ikkinchisi.** Respublika odamlar va davlatlar o'rtasidaga o'zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarni ustun qilib qo'yib, xalqaro maydonga tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash uchun kurashadi.

- **Uchinchisi.** Respublikaning tashqi siyosati teng huquq va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga rioya qiladi.

- **To'rtinchisi.** Mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar tashqi siyosatda ochiq oydinlik prinsiplarini ro'yobga chiqarishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalrni o'r-natishga intiladi.



- **Beshinchishi.** O'zining milliy - huquqiy tizimini vujudga keltirayotgan yosh mustaqil O'zbekiston ichki milliy qonunlaridan xalqaro huquq normalarining ustuvorligini tan oladi.

- **Olitinchisi.** O'zbekiston to'la ishonch prinsiplari asosida ham ichki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalami o'rnatish va rivojlantirish uchun xalqaro tashkilotlar doirasida xamkorlikni chuqurlashtirish uchun xarakat qiladi.

O'zbekistonning toliq bozor iqtisodiyotiga o'tmasligiga bir sabab shundaki, mamlakat iqtisodiyotida davlatning ulushi va uni tartibga soluvchi roli hanuzgacha juda yuqoriligicha qolmoqda. Garchi 2017-yildan beri katta liberalizatsiya islohotlari amalga oshirilgan bo'lsada fundamental to'siqlar to'liq bozor iqtisodiyotini shakllantirishga xalaqit bermoqda:

- **Raqobatni cheklanishi:** ayrim sohalarda davlatga tegishli yoki davlat bilan bogliq bo'lgan kompaniyalar uchun ma'muriy imtiyozlar saqlanib qolgan. Bu esa kichik va o'rta biznes uchun adolatli raqobat muhitini yaratmaydi;

- **Mulk huquqining zaifligi:** Garchi qonunlar mavjud bo'lsa-da, xususiy mulk huquqini ta'minlash va shartnomalarni ijrosini kafolatlashda ba'zan amaliyotdagi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu xorijiy va mahalliy investorlar uchun xavfni oshiradi;

- **Moliya bozorida cheklovlar:** Bank sektorining katta qismi davlatga tegishli. Bu kreditlash shartlari va foiz stavkalarining to'liq bozor talab va taklifiga asoslanmasligiga olib keladi. Aksiyalar va obligatsiyalar kabi qimmatli qogozlar yetarlicha rivojlanmagan.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda davlat xarajatlarini natiya yo'naltirilgan rejalashtirish tizimiga o'tish fiskal siyosatning samaradorligini oshirish va byudjet intizomini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar muhim yo'nalishidir (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5274- qarori, 2021).

Natijalar va tahlil



liberalizatsiyaning samara berishi 2017-yildan keyingi keng ko'lamli islohotlar O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy makroko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi:

➤ **YaIM va barqaror o'sish:** O'zbekiston, COVID-19 pandemiyasiga qaramay, 2000-yillardan boshlab YaIM o'sishining barqaror sur'atlarini (o'rtacha 5-7%) saqlab qoldi. Liberalizatsiya davrida o'sishning asosiy drayveri xomashyo eksportidan ichki iste'mol va xususiy investitsiyalarga o'ta boshladi, bu o'sishning yanada barqaror diversifikatsiyalashganini ko'rsatadi.

➤ **Valyuta siyosatining samarasi:** 2017-yildagi valyuta erkinlashtirilishi natijasida valyuta bozoridagi keskin tartibsizliklar yo'qoldi, bu esa iqtisodiyotning "dollarlashtirish" darajasini pasaytirdi. Tashqi savdo operatsiyalari shaffoflashdi, eksportchilar o'z daromadlarini to'liq nazorat qilish imkoniga ega bo'ldilar.

➤ **Investitsiyalar oqimi:** Konvertatsiyaning erkinligi va biznes muhitini soddalashtirish choralari (Deregulyatsion) tufayli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXXI) hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu o'sish, ayniqsa, energetika, axborot texnologiyalari (IT) va ishlab chiqarish sohalarida kuzatildi, bu esa mamlakatning xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashganligini tasdiqlaydi.

➤ **Kambag'allikni qisqartirish:** So'nggi yillarda samarali ijtimoiy dasturlar (masalan, "Temir daftar", "Ayollar daftari") va iqtisodiy faollikning oshishi hisobiga kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17% dan keyingi yillarda sezilarli darajada pasayib bormoqda.

Muammolar tahlili: To'liq bozorga o'tishdagi to'siqlar O'zbekiston transformatsiyada muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa-da, iqtisodiy tizimni to'liq bozor mexanizmlari asosida shakllantirish uchun hal etilmagan bir nechta tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni murakkab bo'lishiga qaramay, bosqichma-bosqichlik



va ehtiyotkorlik tamoyiliga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv dastlabki yillarda ijtimoiy barqarorlikni saqlash imkonini bergan bo'lsa, keyinchalik liberalizatsiya choralari iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada jadallashtirdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, TXXI oqimi, tashqi savdo aylanmasi va raqobat muhiti sezilarli darajada yaxshilangan. Biroq, iqtisodiy tizimni to'liq bozor mexanizimlari asosida shakillantirish uchun tizimli to'siqlar - xususan, davlatning iqtisodiyotdagi yuqori ulushi va mulk huquqini ta'minlashga qaratilgan institutsional islohotlarning yakunlanmaganligi - hal etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolar bo'lib qolmoqda. O'zbekiston bugungi kunda o'tish davrining so'nggi, hal qiluvchi fazasida turibdi. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishda tanlagan yo'li - o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma - bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotga o'tishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. Toshkent: O'zbekiston 1992 y.
2. Bo'riyev, A. (2018). Iqtisodiyot nazariyasi (Darslik). Toshkent.
3. Pomfret, R. (2019). Uzbekistan's Transition to a Market Economy: The Impact on Income Inequality and Regional Development.
4. International Monetary Fund (IMF). (2025). The Sequencing and Speed of Reforms in Transition Economies: Implications for the Case of Uzbekistan (Selected Issues Paper No. 2025/086). Washington, D.C.: IMF.
5. Dexkonov, J. J. (2025). Stages and results of the transition to a market economy. inlibrary, Vol, Issue.
6. Ilxomova, V., & Asrorov, I. (2025). Transitions to market economy in Uzbekistan. "PEDAGOGS" international research journal, 83(1), 119-123.